

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDAGI ASOSIY MUAMMOLAR TIZIMLI TAHLILI

Xayitov Nodirbek Uzokovich,
"O‘zbekinvest" eksport-import sug‘urta kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati Navoiy viloyat filiali Rahbariyat direktori
https://doi.org/10.5281/zenodo.23803791

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi asosiy tizimli muammolar “O‘zbekinvest” EISK AJ faoliyati misolida chuqur tahlil qilinadi. 2020–2024-yillar kesimida sug‘urta bozorining umumiy hajmi, “O‘zbekinvest”ning bozor ulushi, majburiy va ixtiyoriy sug‘urta turlarining portfeldegi o‘rni, zarar ko‘rsatkichlari va sug‘urta majburiyatlari dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida solishtirma tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sug‘urta bozorida majburiy sug‘urta segmentining yetarlicha rivojlanmagani, sug‘urta mukofotlarining katta qismi kreditlash bilan bog‘liq “mahsulotga qo’shilgan” sug‘urta mahsulotlari hisobiga shakllanayotgani, sug‘urta kompaniyalari kapitallashuv darajasining pastligi va o‘zaro sug‘urta institutining deyarli yo‘qligini ko‘rsatadi. Shuningdek, OSAGO bozoridagi konsentratsiya, korporativ mijozlarga ortiqcha tayanish, zarar ko‘rsatkichlari va da’volar strukturasidagi o‘zgarishlar kompaniyaning risk profili va moliyaviy barqarorligiga ta’siri nuqtayi nazaridan baholanadi. Muallif sug‘urta bozorini diversifikatsiya qilish, majburiy sug‘urta turlarini kengaytirish, tarif siyosatini liberallashtirish, kapitallashuvni kuchaytirish va sug‘urta madaniyatini oshirish bo‘yicha qator amaliy takliflar ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston sug‘urta bozori, “O‘zbekinvest” EISK AJ, majburiy sug‘urta, ixtiyoriy sug‘urta, zararlilik ko‘rsatkichi, sug‘urta portfeli, kapitallashuv, OSAGO, sug‘urta mukofoti, sug‘urta madaniyati.

Kirish.

O‘zbekiston sug‘urta bozori so‘nggi yillarda jadal o‘sish sur’atlarini namoyon etayotgan bo‘lsa-da, uning strukturaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini cheklab turgan bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, majburiy sug‘urta turlarining rivojlanmaganligi, sug‘urta mukofotlari hajmining asosan kreditlash bilan bog‘liq “kiritilgan” sug‘urta mahsulotlari hisobiga oshayotgani, kompaniyalar kapitallashuvining past darajasi, o‘zaro sug‘urta institutining deyarli shakllanmaganligi, tarif siyosatining ma’muriy cheklovlarga bog‘langanligi hamda o‘zini o‘zi tartibga soluvchi professional tuzilmalar yo‘qligi bozorni tizimli rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalarining sotuv kanallari zaifligi, aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchi pastligi va jamg‘arib boriladigan sug‘urta turlarining sust rivojlangani sug‘urta madaniyati va bozor chuqurligining yetarli darajada emasligidan dalolat beradi. Mazkur maqolada “O‘zbekinvest” EISK AJ misolida sug‘urta portfeli tuzilmasi, majburiy va ixtiyoriy sug‘urta segmentlari o‘rtasidagi nomutanosibliklar, zarar ko‘rsatkichlari, kapitallashuv va bozor ulushi dinamikasi hamda OSAGO segmentidagi konsentratsiya darajasi chuqur tahlil qilinadi va shu asosda O‘zbekiston sug‘urta bozorini tizimli isloh qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili.


Sug‘urta bozorining rivojlanishi va undagi institutsional o‘zgarishlar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, tadqiqotchilar barqaror sug‘urta tizimini shakllantirishda risklarni diversifikatsiya qilish, kapital yetarliligi va bozor infratuzilmasini takomillashtirish omillarini asosiy shart sifatida ko‘rsatadi. Swiss Re Institute (2023) ma’lumotlarida sug‘urta bozorlarida o‘sish sur’ati majburiy sug‘urta turlarining rivojlanish darajasi va ixtiyoriy segmentning innovatsiyalashuvi bilan bevosita bog‘liqligi qayd etilgan.

Shuningdek, IAIS (2022) va OECD (2021) tadqiqotlarida sug‘urta portfeli tarkibini diversifikatsiya qilish moliyaviy barqarorlikni oshirishi, yuqori konsentratsiyalashgan portfellar esa bozor tebranishlariga sezgir bo‘lishini ta’kidlaydi. Xalqaro amaliyotda majburiy sug‘urta ulushi umumiy mukofotlarning kamida 30–35 % ini tashkil qilishi bozorning barqaror rivojlanish mezoni sifatida ko‘riladi (World Bank, 2020). Bu ilmiy ishlarda sug‘urta kompaniyalari uchun underwriting siyosatini kuchaytirish, qayta sug‘urta mexanizmlarini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish ushbu sohani modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari sifatida baholanadi.

O‘zbekiston sug‘urta bozoriga oid ilmiy ishlarda esa asosan bozorning rivojlanish dinamikasi, majburiy sug‘urta turlarining sustligi, ixtiyoriy sug‘urta segmentida kreditga bog‘liqlikning yuqoriligi, kapital yetarliligi muammolari va sotuv kanallarining rivojlanmaganligi alohida ta’kidlanadi (Abdullayev, 2021; Yusupov, 2022). Milliy tadqiqotlarda o‘zaro sug‘urta instituti rivojlanmagani, sug‘urta madaniyatining pastligi va jamg‘arib boriladigan sug‘urta ulushining juda kichikligi bozorning strukturaviy muammolari sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, iqtisodchi olimlar portfelning korporativ risklarga haddan tashqari bog‘lanishi (ayniqsa qurilish loyihalari va yirik mulk sug‘urtasida) kompaniyalar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini qayd etadi. Xalqaro va milliy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sug‘urta bozorining transformatsiyasi uchun majburiy sug‘urta mexanizmlarini kengaytirish, mahsulotlar miksi va risklarni boshqarish tizimini diversifikatsiya qilish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida yangi biznes modellarini joriy etish zarur.

Tahlil va natijalar.

Sug‘urta kompaniyalari portfelida majburiy va ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlarining o‘rni ularning moliyaviy barqarorligini, bozor ulushi va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Xalqaro amaliyotda sug‘urta portfelining samaradorligi asosan risklarning diversifikatsiyasi, loss ratio (zararsizlik nisbati), solvency ratio (to‘lov qobiliyati koeffitsienti) hamda retensiya darajasi kabi ko‘rsatkichlar orqali o‘lchanadi. Shu jihatdan, O‘zbekiston sug‘urta bozorida faoliyat yuritayotgan AO КЭИС «O‘zbekinvest» kompaniyasi so‘nggi yillarda majburiy va ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlari ulushi orqali bozor pozitsiyasini sezilarli darajada mustahkamlashga erishdi.



1-rasm. Top sug’urta kompaniyalarining bozor ulushi, mukofotlarning jamiga nisbati[1]

[1] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.


Quyida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, «O‘zbekinvest»ning sug‘urta bozoridagi ulushi 2021-yildagi 12,9 % darajadan 2022-yilda 19,9 % gacha oshgan, bu esa kompaniya faoliyatida majburiy sug‘urta segmentining kengayishi hamda eksport-import sug‘urtasi mahsulotlarining yuqori talabga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Biroq 2023–2024-yillarda kompaniya bozor ulushini mos ravishda 15,9 % va 13,4 % gacha yo‘qotdi, natijada yetakchi o‘rindan ikkinchi pozitsiyaga tushib qoldi. Ushbu pasayish, asosan, ixtiyoriy sug‘urta segmentida kuchli raqobatning paydo bo‘lishi va boshqa kompaniyalar tomonidan joriy qilingan innovatsion mahsulotlar hisobiga yuzaga keldi.

1-jadval.

AJ «O‘zbekinvest EISK»ning O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi pozitsiyasi (mlrd so‘mda)[2]

Yillar	Sug‘urta bozori (mlrd so‘m)	«O‘zbekinvest» (mlrd so‘m)	Ulushi (%)	O‘sish sur’ati (%)	Pozitsiyasi
2021	2 996	385	12,9	147	1-o‘rin
2022	4 672	931	19,9	241	1-o‘rin
2023	7 737	1 234	15,9	133	2-o‘rin
2024	9 484	1 271	13,4	103	2-o‘rin

Majburiy sug‘urta segmentida «O‘zbekinvest»ning ulushi barqaror qolgan bo‘lsa-da, ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlarida kompaniyaning o‘sish sur’ati sezilarli pasaydi. 2022-yilda 241 % lik o‘sish qayd etilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 133 % ga, 2024-yilda esa 103 % ga tushib ketdi. Bu jarayon kompaniya portfelida majburiy sug‘urtaning barqaror daromad manbai sifatida ustunligini, biroq ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlarida innovatsion yondashuv va marketing strategiyalarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.



2-rasm. O‘zbekiston sug‘urta bozori va “O‘zbekinvest” AJ da mukofotlar yig‘ilishi, mlrd. so‘mda[3]

2021–2024-yillar davomida O‘zbekiston sug‘urta bozori barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etib, 2 996 mlrd so‘mdan 9 484 mlrd so‘mgacha, ya’ni qariyb uch baravarga oshgan. “O‘zbekinvest” AJ ko‘rsatkichlari ham ijobiy dinamikani ko‘rsatib, 2021-yildagi 385 mlrd so‘mdan 2024-yilda 1 271 mlrd so‘mgacha yetgan. Biroq bozorning umumiy hajmi bilan solishtirilganda, “O‘zbekinvest”ning ulushi 2022-yilgacha tez

[2] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.


sur'atlarda oshgan bo'lsa-da, 2023–2024-yillarda o'sish sekinlashgan, ya'ni kompaniya bozorning kengayishidan biroz orqada qolgani kuzatiladi. Bu holat kompaniyaning marketing, mahsulot diversifikatsiyasi va hududiy qamrov strategiyasini kuchaytirishni talab qiladi. So'nggi 4 yil davomida "O'zbekinvest" kompaniyasi sug'urta mukofotlari yig'imida o'sishni namoyon etib kelmoqda va O'zbekiston sug'urta bozorida o'rtacha 14 % ulushni saqlab qolmoqda.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozori bo'yicha zarar ko'rsatkichlari haqida ma'lumot[4]

	Sug'urta bozori			"O'zbekinvest"		
Yil	**Mukofot (mlrd so'm)**	**To'lov (mlrd so'm)**	**Zarar ko'rsatkichi (%)**	**Mukofot (mlrd so'm)**	**To'lov (mlrd so'm)**	**Zarar ko'rsatkichi (%)**
2021	2 996	613	20,5 %	385	89	23,2 %
2022	4 672	1 088	23,3 %	931	79	8,5 %
2023	7 737	1 568	20,3 %	1 234	132	10,7 %
2024	9 484	2 073	21,9 %	1 271	157	12,3 %

2021–2024-yillar davomida O'zbekiston sug'urta bozorida zarar ko'rsatkichlari o'rtacha 20–23 % diapazonida shakllangan bo'lsa, "O'zbekinvest" AJda bu ko'rsatkich ancha past bo'lib, so'nggi yillarda barqaror tendensiyani namoyon etdi. Xususan, 2022-yilda kompaniyaning zarar ko'rsatkichi 8,5 %, 2023-yilda 10,7 %, 2024-yilda esa 12,3 %ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2024-yilda kompaniya zarar ko'rsatkichi umumiy bozor ko'rsatkichidan qariyb 9 % past bo'ldi.



3-rasm. Sug'urta bozori va "O'zbekinvest EISK" zarar ko'rsatkichlari dinamikasi, foizda[5]

Bu natijalar "O'zbekinvest"ning sug'urta portfeli yaxshi diversifikatsiya qilinganini, risklarni qabul qilishda ehtiyotkor siyosat yuritayotganini va anderrayting jarayonlari yuqori sifatda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Bozor sharoitida bunday natijalar kompaniyaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ishonchliligini oshirish va

[4] O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va "O'zbekinvest" EISK AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.
[5] O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va "O'zbekinvest" EISK AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

mijozlar uchun raqobatbardosh shartlarni taqdim etishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, “O‘zbekinvest”ning zarar ko‘rsatkichlari respublika bozoridan doimiy ravishda past bo‘lishi, uning sug‘urta faoliyatida strategik ustunlikka ega ekanidan dalolat beradi.

2020–2024-yillar mobaynida “O‘zbekinvest” EISK AJ sug‘urta faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Kompaniya tomonidan qabul qilingan sug‘urta majburiyatlari 153,3 trln so‘mdan 475,8 trln so‘mga yetib, 3,1 martaga yoki 310 % ga o‘sdi. Bu jarayonda korporativ mijozlar segmenti 124,0 trln so‘mdan 408,3 trln so‘mgacha oshib, 3,3 martaga o‘sish ko‘rsatdi, jismoniy shaxslar bo‘yicha majburiyatlar esa 2,3 martaga kengaydi. Shuningdek, eksport sug‘urtasi bo‘yicha majburiyatlar hajmi 1 555,1 mln AQSH dollaridan 3 039,1 mln dollargacha oshib, ikki barobarga yaqin ko‘paydi.

3-jadval.

“O‘zbekinvest” EISK AJ faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari[6]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2020	2024	O‘sish marta	O‘sish %
Qabul qilingan sug‘urta majburiyatlari hajmi, jumladan:	trln so‘m	153,3	475,8	3,1	310 %
– Korporativ mijozlar	trln so‘m	124,0	408,3	3,3	329 %
– Jismoniy shaxslar	trln so‘m	29,3	67,4	2,3	230 %
Eksport sug‘urtasi bo‘yicha majburiyatlar hajmi	mln. AQSH dollari	1 555,1	3 039,1	2,0	195 %
Umumiy sug‘urta mukofotlari yig‘imi	mlrd so‘m	262,9	1 270,6	4,8	483 %
– Bosh kompaniya	mlrd so‘m	145,1	1 030,5	7,1	710 %
– Filiallar	mlrd so‘m	117,8	240,1	2,0	204 %
shu jumladan; Korporativ mijozlar	mlrd so‘m	214,2	1 151,9	5,4	538 %
– Jismoniy shaxslar	mlrd so‘m	48,7	118,7	2,4	244 %
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug‘urtalash	mlrd so‘m	34,5	41,2	1,2	119 %
Erkin iqtisodiy zonalar rezidentlarini sug‘urtalash	mlrd so‘m	2,9	20,6	7,1	707 %
Investitsiya loyihalarini sug‘urtalash	mlrd so‘m	19,4	64,6	3,3	332 %

Umumiy sug‘urta mukofotlari yig‘imi 2020-yildagi 262,9 mlrd so‘mdan 2024-yilda 1 270,6 mlrd so‘mga yetib, 4,8 martaga o‘sdi. Shu jumladan, bosh kompaniya ko‘rsatkichlari 7,1 martaga, filiallar esa 2 martaga oshgani kuzatildi. Korporativ mijozlardan yig‘ilgan mukofotlar 5,4 martaga, jismoniy shaxslardan yig‘ilgan mukofotlar esa 2,4 martaga oshdi. Bu natija yuridik shaxslar bozorining kompaniya faoliyatida asosiy drayverga aylanganidan dalolat beradi. Ayniqsa, erkin iqtisodiy zonalar rezidentlarini sug‘urtalash bo‘yicha mukofotlar 7,1 martaga, investitsiya loyihalarini sug‘urtalash bo‘yicha mukofotlar esa 3,3 martaga ko‘paygan.

Oxirgi 5 yil ichida “O‘zbekinvest” kompaniyasi sug‘urta bozorida yuqori o‘sish sur’atlarini namoyon etib, portfelini kengaytirishga va diversifikatsiyaga erishdi. Kompaniya asosan korporativ mijozlar segmentida, erkin iqtisodiy zonalar rezidentlari va investitsiya loyihalarida faol kengayish bilan ajralib turmoqda, bu esa uning sug‘urta bozorida yetakchi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

[6] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.


2023-yil yakunlariga ko‘ra, “O‘zbekinvest” EISK AJ tomonidan yig‘ilgan jami sug‘urta mukofotlari 1 233 859,7 mln so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 88 555,8 mln so‘mi majburiy sug‘urta turlariga to‘g‘ri kelmoqda.

4-jadval.

“O‘zbekinvest” EISK AJ sug’urta mukofoti taqsimoti, 2023-yil

Jami sug’urta mukofoti (2023 yil)	Ixtiyoriy sug’urta turlari	Majburiy sug’urta turlari
1 233 859 745,06	1 145 303 918,94	88 555 826,12
100%	93%	7%

Bu umumiy yig‘imning atigi 7,1 % ini tashkil etib, kompaniya faoliyatida majburiy sug‘urta segmentining nisbatan kichik ulushga ega ekanini ko‘rsatadi.



4-rasm. Jami mukofotlar proporsiyasi, 2023[7]

Majburiy sug‘urta turlari ichida eng katta ulushni transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash egallab, 41 523,5 mln so‘m yoki umumiy yig‘imning 3,4 % ini tashkil etdi. Keyingi o‘rinda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash bo‘lib, 26 792,8 mln so‘m yoki 2,17 % ulush qayd etilgan. Qolgan majburiy sug‘urta turlarining ulushi esa 1 % dan past bo‘lib, asosan xavfli obyektlar (0,4 %), harbiylar va soliqchilar (0,6 %), hamda qurilish-montaj xavflari (0,5 %) bo‘yicha shakllangan.

5-jadval.

“O‘zbekinvest” EISK AJ tomonidan majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari (2023-yil, mln so‘mda)[8]

Majburiy sug‘urta turlari	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Jami	Ulushi, %
Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash	37 153,4	4 370,1	41 523,5	**3,4**
Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash	–	26 792,8	26 792,8	**2,17**
Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash	5,1	122,7	127,8	**0,01**
Qurilish-montaj xavflarini majburiy sug‘urtalash	–	5 973,7	5 973,7	**0,5**

[7] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.
[8] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

Auditorlarning kasbiy javobgarligini majburiy sug‘urtalash	–	1 096,0	1 096,0	**0,1**
Bojxona brokerlarining kasbiy javobgarligini majburiy sug‘urtalash	–	26,0	26,0	**0,0**
Harbiylar va soliqchilarni majburiy sug‘urtalash	–	7 899,3	7 899,3	**0,6**
Xavfli obyektlar bo‘yicha javobgarlikni majburiy sug‘urtalash (OPO)	–	4 645,7	4 645,7	**0,4**
Davlat sud ekspertlarining hayoti va sog‘lig‘ini majburiy sug‘urtalash	–	224,4	224,4	**0,02**
Notariuslarning kasbiy javobgarligini majburiy sug‘urtalash	237,1	9,6	246,7	**0,02**
Jami	37 395,6	51 160,2	88 555,8	**7,1**
Jami yig’ilgan sug’urta mukofoti				**1 233 859,7**

2023-yilda “O‘zbekinvest” EISK AJ ixtiyoriy sug‘urta mukofotlari 1 145 304,0 mln so‘mni tashkil etdi va kompaniyaning jami yig‘imida 93,0 % ulushga ega bo‘ldi (majburiy sug‘urta – 7,0 %). Portfel tuzilmasi yuqori konsentratsiya bilan ajralib turadi: mol-mulkni ixtiyoriy sug‘urtalash – 43,0 %, qurilish xavflari – 27,6 %, transport vositalarini ixtiyoriy sug‘urtalash – 8,1 %. Demak, TOP-3 yo‘nalish jami 78,7 % ulushni beradi; TOP-5ni olganda (ustidagilarga “garovdagi transport” 3,3 % va “yuklar” 2,3 % qo‘shilganda) portfelning 84,3 % qismi qamrab olinadi. Bunday tuzilma kompaniya daromadliligini qo‘llab-quvvatlashi mumkin, biroq risklarning tur va obyektlar bo‘yicha konsentratsiyasi yuqori ekanini ko‘rsatadi (ayniqsa, yirik mulk va qurilish loyihalari bo‘yicha to‘lovlar intensivligi hamda zarar og‘irligi yuqori bo‘lishi mumkin).

6-jadval.

“O‘zbekinvest” EISK AJ tomonidan ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari haqida ma’lumot (2023-yil, mln so‘mda)[9]

Ixtiyoriy sug‘urta turlari	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Jami	Ulushi, %
“Travel” chet elga chiquvchilarni sug‘urtalash	5 853,9	99,8	5 953,8	**0,5**
“Avtokredit” sug‘urtasi	11,4	19 288,8	19 300,2	**1,6**
Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash	2 361,9	2 247,3	4 609,2	**0,4**
Garovga qo‘yilayotgan mol-mulklarni sug‘urtalash	1 381,8	13 981,2	15 363,0	**1,2**
Garovga qo‘yilayotgan transport vositalarini sug‘urtalash	28 099,5	12 716,9	40 816,4	**3,3**
Ipotekani sug‘urtalash	6 243,3	26,4	6 269,8	**0,5**
Kasbiy javobgarlikni sug‘urtalash	5,6	1 666,7	1 672,3	**0,1**
Kredit qaytmasligi xataridan sug‘urtalash	0,0	8 062,8	8 062,8	**0,7**
Qurilish xavflarini sug‘urtalash	–	340 740,6	340740,6	**27,6**
Lizingga berilayotgan mol-mulklarni sug‘urtalash	0,0	453,7	453,7	**0,0**
Lizingga berilayotgan transport vositalarini sug‘urtalash	255,2	1 928,4	2 183,6	**0,2**
Moliyaviy xavflarni sug‘urtalash	–	5 519,8	5 519,8	**0,4**

[9] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

Mol-mulklarni ixtiyoriy sug‘urtalash	1 004,5	529 204,1	530208,7	**43,0**
Transport vositalari egalarining javobgarligini ixtiyoriy sug‘urtalash	49,7	–	49,7	**0,0**
Transport vositalarini ixtiyoriy sug‘urtalash	1 624,5	97 963,0	99 587,5	**8,1**
Fuqarolik javobgarligini ixtiyoriy sug‘urtalash	2 189,0	22 987,8	25 176,7	**2,0**
Eksport operatsiyalarini sug‘urtalash	–	10 733,7	10 733,7	**0,9**
Yuklarni sug‘urtalash	4,6	28 597,9	28 602,6	**2,3**
Jami	49 085,0	1 096 219,0	1 145 304,0	**93,0**
Jami yig’ilgan sug’urta mukofoti				**1 233 859,7**

Mijoz segmentatsiyasi bo‘yicha ixtiyoriy mukofotlarning 95,7 %i yuridik shaxslardan (1 096 219,0 mln so‘m), 4,3 %i esa jismoniy shaxslardan (49 085,0 mln so‘m) shakllangan. Eng yirik yo‘nalishlar deyarli to‘liq korporativ segment hisobiga o‘smoqda: mol-mulk (jismoniy 1 004,5; yuridik 529 204,1), qurilish xavflari (faqat yuridik 340 740,6), transport KASKO (jismoniy 1 624,5; yuridik 97 963,0). Bu korporativ mijozlarga tayanish strategiyasi samarali monetizatsiyani ta’minlayotganini bildiradi, biroq iqtisodiy sikllar, qurilish/investitsiya faoliyati va kreditlash dinamikasiga pro-siklik sezgirlikni oshiradi. Shu nuqtai nazardan, portfelni jismoniy shaxslar mahsulotlari — shaxsiy javobgarlik, sayohat, ipoteka va avtokredit bilan bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish risklarni yumshatadi; tarif va anderrayting siyosatini segmentlar kesimida differensiallashtirish, yirik mulk/qurilish obyektlari bo‘yicha excess-of-loss qayta sug‘urta qoplamalarini kengaytirish, transport va yuklar bo‘yicha kvotali (quota-share) kelishuvlar ulushini oshirish tavsiya etiladi.

2020–2024 davrida da’volar soni kamayib, ularga to‘langan summa keskin oshgani portfelning “kattalashib borayotgan” tabiatini ko‘rsatadi: jami da’volar 8 296 tadan 5 604 tagacha (–32,4 %) tushgan, lekin jami to‘langan summa 66,6 mlrd so‘mdan 156,8 mlrd so‘mga (+135,4 %) ko‘tarilgan.

7-jadval.

“O‘zbekinvest” EISK AJ sug’urta da’volari tahlili, mln. so’m[10]

	2020	2021	2022	2023	2024	O’zgarish, 2024/2020,%
Jami sug'urta da'volari soni	8 296	8 784	5 745	4 769	5 604	**–32,4 %**
Shundan:						
Yuridik shaxslardan kelib tushgan sug'urta da'volari soni	1 032	4 691	2 370	1 822	1 667	**+61,5 %**
Shundan:						
Rad qilingan sug'urta da'volari soni	**66**	**183**	**135**	**79**	**66**	**0,0 %**
To'lab berilgan sug'urta da'volari soni	186	178	140	115	123	**–33,9 %**
Jismoniy shaxslardan kelib tushgan sug'urta da'volari soni	7 264	4 093	3 375	2 947	3 937	**–45,8 %**
Shundan:						
Rad qilingan sug'urta da'volari soni	925	4 436	2 136	1 633	1 459	**+57,7 %**

[10] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

To'lab berilgan sug'urta da'volari soni	6 576	3 695	3 095	2 650	3 625	**–44,9 %**
Jami qanoatlantirilgan sug'urta da'volari summasi	66 601	89 324	78 688	132 371	156 775	**+135,4 %**
Shundan:						
Jismoniy shaxslarga to'lab berilgan sug'urta da'volari summasi	34 363	34 327	18 661	19 448	26 792	**–22,0 %**
Yuridik shaxslarga to'lab berilgan sug'urta da'volari summasi	32 238	54 996	60 027	112 923	129 983	**+303,2 %**

Eng muhim siljish yuridik shaxslar yo‘nalishida: ularning to‘lovlari 4,03 barobar oshib 129,98 mlrd so‘mga yetgan (2020: 32,24 mlrd), bu 2024-yilda jami to‘langan pulning ~83 % ini tashkil etadi (2020: ~48 %). O‘rtacha to‘lov miqdori keskin yiriklashdi: jami hisobda ~9,9 mln so‘mdan ~41,9 mln so‘mgacha (≈4,2x), yuridik shaxslarda esa ~173 mln so‘mdan ~1,06 mlrd so‘mgacha (≈6,1x). Aksincha, jismoniy shaxslar bo‘yicha to‘langan summa –22,0 % pasaygan, bu retail segment ulushining qisqarayotganini va portfelning korporativ, yuqori-limitli risklar tomon siljishini anglatadi.

Boshqa tomondan, yuridiklardan kelgan da’volar soni +61,5 % o‘sgan bo‘lsa-da, to‘lab berilgan yuridik da’volar soni –33,9 % kamaygan; rad etilganlari esa o‘zgarmagan. Bu statistikada tasnif/ hisobot metodikasi (masalan, ko‘rib chiqilmoqda, qisman qoplangan, regress, subrogatsiya kabi holatlar) tufayli tafovutlar bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi, shuning uchun qabul qilish koeffitsientlarini bevosita hisoblash ehtiyotkorlikni talab qiladi. Amaliy jihatdan kompaniyaga: (i) yirik korporativ yo‘nalishlarda tarif va anderraytingni yanada qat’iylashtirish, (ii) qayta sug‘urtani (excess-of-loss/ quota share) kengaytirib, risk konsentratsiyasini boshqarish, (iii) antifrod va da’vo-analitikani kuchaytirish, (iv) retail segmentda raqamli soddalashtirish va mahsulotlar miksi orqali barqarorlikni tiklash tavsiya etiladi.

2023–2024-yillarda “O‘zbekinvest” EISK AJ tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari umumiy hajmda 1 234 mlrd so‘mdan 1 271 mlrd so‘mga (+3 %) oshdi. Portfel tarkibida eng katta ulushni mol-mulk sug‘urtasi (665 mlrd so‘m, +25 %) saqlab qolgan bo‘lsa, sezilarli pasayish qurilish-montaj xavflari sug‘urtasida (–45 %) kuzatildi, bu segmentdagi hajm 347 mlrd so‘mdan 191 mlrd so‘mga tushib ketgan. Shu bilan birga, kredit qaytmasligi va moliyaviy xavflar sug‘urtasi uch barobardan ortiq (301 %) o‘sib, kompaniya uchun yangi istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida shakllandi. Majburiy sug‘urta turlari – OSAGO (–6 %) va OSGOR (+45 %) barqaror dinamikani ko‘rsatgan, javobgarlik sug‘urtasi (+9 %) hamda yo‘ldagi mol-mulk sug‘urtasi (+15 %) esa mo’tadil o‘sishga erishdi.

8-jadval.

“O‘zbekinvest” EISK AJ su‘urta turlari bo‘yicha mukofotlar tahlili, (2023–2024-yillar, mlrd so‘mda)[11]

Sug‘urta turi	2023	2024	O‘sish, %
Mol-mulkni sug‘urtalash	530	665	125%
Qurilish-montaj xavflarini sug‘urtalash	347	191	55%
Garovga qo‘yilgan avtotransportni sug‘urtalash	63	82	129%
Temiryo‘l tarkibi va aviatsiya sug‘urtasi	96	76	79%
Kredit qaytmasligi va moliyaviy xavflar	13	40	301%
OSAGO	42	39	94%
OSGOR	27	39	145%
Javobgarlik sug‘urtasi	33	36	109%

[11] “O‘zbekinvest” EISK AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilindi.

Yo‘ldagi mol-mulkni sug‘urtalash	29	33	115%
Boshqalar	55	71	129%
Jami	**1 234**	**1 271**	**103%**

Bu raqamlar kompaniya portfelining asosan korporativ segmentda barqarorligi saqlanib qolayotganini, biroq ayrim tarmoqlarda (ayniqsa qurilish sug‘urtasida) risklar va pasayish tendensiyalari mavjudligini ko‘rsatadi.

2024-yilda OSAGO bozorida kompaniyalar ulushi bo‘yicha ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, transport vositalari egalari javobgarligini majburiy sug‘urtalash segmentida mukofotlar asosan yirik sug‘urta kompaniyalari qo‘lida jamlangan. Bu holat bozorda raqobatning cheklanganligini, ayrim kompaniyalarning esa ancha katta bozor ulushiga ega ekanini ko‘rsatadi.


9-jadval.

2024-yilda OSAGO bozorida kompaniyalarning sug‘urta mukofotlari ulushi haqida ma’lumot (mlrd so‘mda)[12]

	Sug’urta kompaniyasi	Sug’urta mukofoti	Bozordagi ulushi, %
1.	AJ "MY-INSURANCE"	53 031	17,1%
2.	AJ EISK "O‘ZBEKINVEST"	38 435	12,4%
3.	AJ "APEX INSURANCE"	33 387	10,8%
4.	AJ "GROSS INSURANCE"	34 812	11,2%
5.	AJ "NEO INSURANCE CORP"	30 803	9,9%
6.	AJ "KAPITAL SUG‘URTA"	23 920	7,7%
7.	AJ "ALSKOM"	25 471	8,2%
8.	AJ SK "KAFOLAT"	16 591	5,3%
9.	AJ "INSON"	15 914	5,1%
10.	AJ "O‘ZAGROSUG‘URTA"	11 492	3,7%
11.	AJ "SEMURG SUG‘URTA"	5 710	1,8%
12.	AJ SK "ASIA INSURANCE"	5 819	1,9%
13.	AJ "IMPEX-INSURANCE"	2 567	0,8%
14.	AJ "TEMIRYO‘L SUG‘URTA"	2 731	0,9%
15.	QK AJ "EUROASIA INSURANCE"	1 935	0,6%
16.	AJ SK "ALFA INVEST"	2 010	0,6%
17.	AJ "XALQ SUG‘URTA"	1 751	0,6%
18.	AJ SK "SQB INSURANCE"	1 161	0,4%
19.	AJ "HAMKOR SUG’URTA"	967	0,3%
20.	AJ "KAFIL SUG’URTA"	415	0,1%
21.	AJ "INFINITY INSURANCE"	340	0,1%
22.	AJ "IMKON SUG’URTA"	311	0,1%
23.	AJ "INGO-UZBEKISTON"	527	0,2%
24.	AJ SK "ISHONCH"	38	0,0%
25.	Jami:	310 137	100,0%

2024-yilda OSAGO bozorida sug‘urta mukofotlari taqsimoti shuni ko‘rsatadiki, bozor nisbatan diversifikatsiyalashgan bo‘lsa-da, yetakchi ulushni boshqa kompaniyalar (38,6 %) egallagan, bu esa kichik va o‘rta o‘yinchilar sonining ko‘pligidan dalolat beradi. Yirik kompaniyalar orasida MY-INSURANCE (17,1 %) yetakchi o‘rinda, undan keyin O‘zbekinvest (12,4 %), Gross Insurance (11,2 %) va Apex Insurance (10,8 %) joylashgan.

[12] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



5-rasm. 2024-yilda OSAGO bozorida kompaniyalar ulushi, foizda[13]

Shu bilan birga, NEO Insurance Corp (9,9 %) ham sezilarli o‘rinni egallab, bozorda barqaror o‘yinchi sifatida namoyon bo‘lgan. Bu taqsimot yirik kompaniyalar bilan bir qatorda ko‘plab kichik sug‘urta kompaniyalari ham faoliyat yuritayotganini va raqobat muhitining shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa.

O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, majburiy sug‘urta turlarining rivojlanmaganligi sezilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda atigi 4 turdagi majburiy sug‘urta amal qilmoqda, ularning mukofot tushumlari (“O‘zbekinvest” kompaniyasi misolida) jami sug‘urta mukofotlarining 15,9 % dan kamini tashkil qiladi, bank kanallari orqali esa bu ko‘rsatkich atigi 6,9 % ni tashkil etmoqda. Jahon amaliyotida majburiy sug‘urta mukofotlarining ulushi, odatda, umumiy hajmning kamida uchdan bir qismini egallaydi. Demak, ushbu sohada tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish va yangi majburiy sug‘urta turlarini joriy etish zarur.

Ikkinchidan, sug‘urta mukofotlari asosan kreditlash bilan bog‘liq xavflarni qoplashga xizmat qiladigan kiritilgan sug‘urta turlari hisobiga o‘smoqda. Bu O‘zbekiston sug‘urta bozorining o‘sishi mahalliy tijorat banklarining kreditlash faoliyatiga yuqori darajada bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. So‘nggi besh yilda kiritilgan sug‘urta turlari (asosan ixtiyoriy sug‘urta sifatida shakllangan) umumiy sug‘urta mukofotining kamida 60 % ini tashkil etib kelmoqda.

Uchinchidan, aksariyat sug‘urta kompaniyalarining kapitallashuvi yetarli emas. Ularning umumiy kapitali 2,299 trln so‘m atrofida bo‘lib, bu o‘rtacha bir yevropalik sug‘urta kompaniyasi darajasida, biroq milliy bozorning hajmiga va xavflar hajmiga nisbatan yetarli emas. Bu moliyaviy barqarorlik va risklarni qoplash imkoniyatlarini cheklaydi.

[13] O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda o‘zaro sug‘urta instituti deyarli mavjud emas. Chunki “O‘zaro sug‘urta to‘g‘risida” qonun hali qabul qilinmagan, mavjud amaliyot esa faqat notijorat shakllarda amalga oshirilmoqda. Holbuki, o‘zaro sug‘urta jahon amaliyotida barqarorlikni ta’minlash va sug‘urta madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Beshinchidan, majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha davlat tomonidan sug‘urta tariflarini asossiz cheklash ham muammo hisoblanadi. Amaldagi tartibda tariflarning quyi chegaralari belgilangan, bu esa sug‘urtalovchilarni real risklarni to‘liq baholashdan cheklaydi. Xalqaro amaliyotda, aksincha, sug‘urta tariflarining yuqori chegaralari belgilanadi, past chegaralar esa bozor mexanizmlariga qoldiriladi.

Oltinchidan, O‘zbekiston sug‘urta bozorida o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlarning mavjud emasligi muammodir. Bunday institutlarning yo‘qligi sug‘urta sohasida professional standartlarni joriy etish, malaka oshirish, ichki nazorat va shaffoflikni ta’minlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Yettinchidan, sug‘urta kompaniyalarining sotuv kanallari zaif rivojlangan. Mahalliy sug‘urtachilar asosan korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatadi, keng aholiga mo‘ljallangan ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlarini yetkazish va sotishda esa jiddiy kamchiliklar mavjud. Bu aholining sug‘urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini keskin cheklab qo‘ymoqda.

Sakkizinchidan, jamg‘arib boriladigan sug‘urta turlari bo‘yicha ham salbiy holat kuzatilmoqda. 2023-yil 31-dekabr holatiga ko‘ra, mamlakatda 37 milliondan ortiq aholi yashayotgan bo‘lsa-da, atigi 248 046 ta sug‘urta shartnomasi tuzilgan. Bu aholining sug‘urtaga ishonchi pastligi, sug‘urta madaniyatining yetarlicha shakllanmaganligi va sug‘urta kompaniyalarining marketing hamda savdo siyosati sustligidan dalolat beradi.

References:

Akramov, A., & Rustamov, B. (2022). *Insurance market development and risk diversification in emerging economies*. Tashkent Economic Review, 14(3), 45–59.

Borch, K. (1990). *Economics of insurance*. North-Holland.

Cummins, J. D., & Venard, B. (2007). *Handbook of International Insurance: Between Global Dynamics and Local Contingencies*. Springer.

Deloitte. (2021). *Global insurance outlook: Driving transformation through technology*. Deloitte Insights. https://www2.deloitte.com

Geneva Association. (2023). *Global insurance trends and resilience report*. Geneva Association.

IAIS – International Association of Insurance Supervisors. (2022). *Global Insurance Market Report (GIMAR)*. IAIS Publications.

Jahon banki. (2020). *Uzbekistan Economic Update: Navigating reforms*. World Bank Group. https://www.worldbank.org

Jahon banki. (2023). *Insurance sector modernization and regulatory reforms in developing countries*. World Bank Group.

Kim, Y., & Lee, J. (2019). Digital transformation in insurance markets: Implications for underwriting and risk management. *Journal of Financial Innovation*, 7(2), 88–108.

OECD. (2022). *Insurance and private pensions: Market trends*. OECD Publishing. https://www.oecd.org

Outreville, J. F. (2013). *Theory and practice of insurance in developing economies*. Development Finance Review, 21(1), 57–75.

Swiss Re Institute. (2022). *World insurance sigma report 2/2022*. Swiss Re Publications.

Swiss Re Institute. (2023). *Global insurance lines: Growth, risk, and resilience*. Sigma Report.

Turaev, A., & Mamatqulov, S. (2021). Risk-based capital and solvency regulation in Uzbekistan's insurance sector. *Central Asian Economic Review*, 9(4), 103–118.

Uzbekistan Ministry of Finance. (2023). *Annual report on insurance market performance*. Ministry of Finance Publications.